

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Ro‘yxatga olindi:

№ _____

2008 yil «__» ____

O‘zbekiston Respublikasi Oliy

va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

2008 yil «__» ____ dagi

«__»- sonli buyruq bilan
tasdiqlangan

UMUMIY TILSHUNOSLIK fanining

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	-	Gumanitar fanlar va san’at
Ta’lim sohasi:	220000	-	Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5220100	-	Filologiya (sharq tillari)

Toshkent - 2008

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2008 yil «___» _____ dagi «___»- son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

T u z u v c h i:

Omonov Q. – “Turkiyot” kafedrasining mudiri v.b.,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

T a q r i z c h i l a r:

Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
“Mumtoz filologiya” kafedrasining
mudiri, filologiya fanlari doktori,
professor.

Dadaboyev H. – O‘zbekiston Milliy universiteti “Umumiy
tilshunoslik” kafedrasining mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2008 yil _____dagi «___»- sonli bayonnoma)

Kirish

Umumiy tilshunoslik - sharqshunos-filologlarning bir necha yil davomida o'zlari o'rgangan til sohasida olgan bilimlarini umumlashtiruvchi va adog'iga yetkazuvchi nazariy kurs. Ushbu fan ko'magida filologiya fakultetlarida o'qiyotgan talabalarning tilshunoslik yo'nalishidagi ko'zqarashlari kengayadi: til haqidagi nazariy bilimlari o'sadi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Kursning bosh maqsadi talabalarni tilshunoslikdagi turli yo'nalish va maktablarning qarashlari bilan tanishtirishdir. Ular fanni o'qish davomida zamonaviy til bilimlari oldida turgan tugunlarni bilib boradilar. Tilshunoslik metodlari va til hodisalariga ilmiy yondashuv usullarini o'zlashtiradilar. Fanning bu qirradi ilmiy toliblarning malakaviy-bitiruv ish yozish jarayonida ham qo'l keladi.

Albatta, qisqa vaqtda tilshunoslikka tegishli bor ma'lumotni o'qitib ulgurish mushkul. Ana shu qiyinchilikni ko'zda tutib, o'quv dasturida uch o'zak yo'nalish qamrab olingan: til nazariyasi, lingvistika tarixi, tilning o'rganish usullari va metodlari.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Umumiy tilshunoslik" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- tilshunoslik ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari to'g'risida; sharq tilshunosligining taraqqiyot bosqichlarini **bilishi kerak;**

- umumiy tilshunoslik fanining yuzaga kelishi; tillarni sinxron va diaxron jarayonlarda o'rganish masalalari; hozirgi zamon tilshunosligidagi asosiy maktab va yo'nalishlari; tilshunoslik faning ilmiy-tadqiqot metodlarini **bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;**

- umumiy tilshunoslikning muhim yo'nalishlari: sotsiolingvistika, psixolingvistika, areal tilshunoslik, matematik lingvistika; tildagi universaliya hodisalari; til va jamiyat munosabatlari; til va tafakkur

birligi masalasi; til tizimi va uning o‘zaro yaxlitligi masalasini tushuna olish *malakasiga ega bo‘lishi kerak*.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Umumiy tilshunoslik” asosiy umumkasbiy fanlar qatorida turuvchi fan hisoblanib, 7- semestrda o‘qitiladi.

Ushbu o‘quv fanini o‘zlashtirish uchun o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi, g‘arb tili, o‘zbek tili), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (geografiya, etnografiya), umumkasbiy (asosiy sharq tili, tilshunoslikka kirish, qo‘shimcha sharq tili v.b.) va ixtisoslik fanlari (maxsus filologiyaga kirish, AShT leksikologiyasi, AShT nazariy grammatikasi v.b.)dan yetarli bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Maktabgacha ta‘lim muassasasi, o‘rta umumta‘lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari faoliyat olib borilganda umumiy tilshunoslik kursidan olingan bilimlar qo‘l keladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, sharq filologiyasi bo‘yicha bakalavr tayyorlash bosqichining ajralmas bo‘g‘inidir.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ilmi toliblarning umumiy tilshunoslik fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va yetakchi usullarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o‘qitish jarayonida darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, dars yo‘rug‘lari, tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Tilshunoslikning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari, tillarni sinxron va diaxron jarayonlarda o'rganish masalalari, hozirgi zamon tilshunosligidagi asosiy maktab va yo'nalishlari, tilshunoslik faning ilmiy-tadqiqot metodlarini, til va jamiyat munosabatlari, til va tafakkur birligi masalalari to'g'risida ma'lumotlar.

Til nazariyasi

Umumiy tilshunoslik" kursining maqsad va vazifalari. Til tizim sifatida. Tilning tuzilishi. Tilning tuzilishi to'g'risidagi ko'zqarashlar. Tilning belgi anglatish xususiyati. Lingvosemiotika va uning ish ko'rish yo'nalishlari. Til birliklari, ularning turlari. Til va tafakkur. Til va mantiq. Nutq va so'zlovchining ruhiy faoliyati. Til va jamiyat. Jamiyat va muhitning so'zlovchi nutqida aks etishi. Ikkitillilik va ko'ptillilik ijtimoiy hodisa sifatida. Jamiyatlar orasida til o'lchovlarining turlicha belgilanishi. Tilning hududiy va ijtimoiy tabiati. Xalq tili tushunchasi. Adabiy til. Yozma til uslublari. Til va madaniyat. Tillarning o'zaro munosabatlari. Xalqaro tillar. Dunyo darajasiga ko'tarilgan tillar. Tilning ijtimoiy-siyosiy mavqei. Davlat tili tushunchasi va til siyosati.

Tilshunoslik tarixi

Tilshunoslik va uning yuzaga kelishi. Qadimgi davrlardan XVIII asrlarga qadar bo'lgan tilshunoslik. XIX yuzyillik tilshunosligi. XX yuzyillik lingvistikasi. Praga, Kopengagen va Amerika tilshunoslik maktablari.

Tilshunoslikning yo'nalishlari, tekshiruv va yondashuv yo'llari

Tavsiflash metodi. Til birliklari va ularning ochiqلامasi. Tavsiflash usulining turlari. Qiyosiy yondashuv. Qiyosiy-tarixiy usul. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Tilshunoslikda hind-evropa va oltoy tillari

nazariyalarining yuzaga keluvi. Chog'ishtirma metod va uning muhim xususiyatlari. Struktural va distributiv tahlil usullari. Matematik va statistik tekshiruv metodlari. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar. Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Kompyuter tilshunosligi.

Amaliy mashg'ulotlarni uyushtirish bo'yicha ko'rsatma va yo'llanmalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar tilshunoslikning muhim nazariy jihatlariga e'tibor qaratadilar.

Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular:

1. O'rganilayotgan tilning qurilishi va uning sathlarini tahlil qilish.
2. O'rganilayotgan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik qatlamlarini tekshirish.
3. Sharq xalqlari orasida yuzaga kelayotgan ikki tillilikning ijtimoiy faktorlari.
4. Lahja va sheva tushunchalari. O'zbek tili shevalari.
5. O'lik tilar va yasama (sun'iy) tillar.
6. Globallashuv sharoitida milliy tillarning taqdiri.
7. Ilk va o'rta asrlarda Sharq tilshunosligining asosiy yo'nalishlari. Turkiy tilshunoslik va uning tarixi.
8. Hozirgi o'zbek tilshunosligi. O'zbekiston sharqshunosligi.

Amaliy darslarni uyushtirish bo'yicha kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va yo'llanmalar ishlab chiqiladi. Unda ilmi toliblar ma'ruza darslarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalar, dars yo'rug'lari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar ilmiy faolligini oshirish, mavzular bo'yicha ilmiy ma'ruzalar tayyorlash tavsiya etiladi.

Laboratoriya ishlarini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida laboratoriya mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

Kurs ishini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida kurs ishi ko'zda tutilmagan

Mustaqil topshiriqlarni uyushtirishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va dars yo'rug'laridan kurs mavzularini o'rganish;
- til nazariyasi turkumiga tegishli mavzularni o'zlashtirish;
- tilshunoslik tarixi va uning yuzaga kelish bosqichlarini tahlil etish;
- tilshunoslikning yo'nalishlari, tekshiruv va yondashuv yo'llarini bilish;

Mustaqil topshiriqlarning mavzulari:

1. Globallashuv sharoitida milliy tillar taqdiri to'g'risida.
2. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Tilshunoslikda hind-ovrupa va oltoy tillari nazariyalarining yuzaga keluvi.
3. Til tizim sifatida. Tilning tuzilishi va tizimi. Tilning tuzilishi haqidagi ko'zqarashlar.
4. Til va jamiyat. So'zlovchi nutqining ijtimoiy tabiati. Ikki va ko'p tillilik ijtimoiy hodisa sifatida. Har bir jamiyatga xos bo'lgan til me'yorlari. Tilning hududiy va ijtimoiy tabiati.
5. Tildagi universaliya hodisasi.
6. Tilning ijtimoiy-siyosiy mavqei. Davlat tili tushunchasi va til siyosati.
7. Tavsifiy metod. Til birliklari va ularning tavsifi. Tavsifiy usulning asosiy turlari.
8. Tilning belgili tabiati. Lingvosemiotika va uning bosh masalalari. Til birliklari va belgilar, ularning turlari.
9. Til va tafakkur. Til va mantiq. Nutq va so'zlovchining ruhiy faoliyati.
10. Adabiy til (=yozuv tili) va uning uslublari. Xalq tili va milliy til tushunchalari. Til va madaniyat. Tillarning o'zaro munosabatlari.
11. Xalqaro tillar. Dunyo darajasiga ko'tarilgan tillar.
12. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar.
13. Tilshunoslikdagi metod va yo'nalishlar.
14. Chog'ishtirma metod va uning muhim xususiyatlari.

15. Dialekt, lahja va sheva tushunchalari tahlil etish. O'zbek tili shevalari misolida.

16. Lingvistikadagi qiyosiy yondashuv. Qiyosiy-tarixiy usul.

17. Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Kompyuter tilshunosligi.

18. O'zbekistonda yuzaga kelgan sharqshunoslikning muhim yo'nalishlari.

19. Amaliy tilshunoslik.

20. Atamashunoslik masalalari.

21. Jamiyatdagi tilning turlari.

22. Til va tarix masalasi.

23. Tilshunoslikning boshqa tizimlar doirasidagi o'ri.

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti

Ushbu fanni o'rgatish davomida o'qitishning zamonaviy usullari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan.

- til nazariyasi turkumiga tegishli mavzularni o'zlashtirishda kompyuter texnologiyalari ko'magida taqdimot va elektron-didaktik vositalar qo'llaniladi;

- tilshunoslik tarixi va u bilan bog'liq masalalarni o'tganda o'qitishning yetakchi pedagogik texnologiyalaridan foydalagniladi;

- tilshunoslikning yo'nalishlari, tekshiruv va yondashuv yo'llari to'g'risidagi mavzularni o'qitganda kompyuter texnologiyalari ko'magida taqdimot va elektron-didaktik hamda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qo'llaniladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

1. *Amirova T.A. i dr. Istoriya yazikoznaniya. M., 2003.*
2. *Baskakov N. A. va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. T., 1979.*
3. *Benvenist E. Obshaya lingvistika. M., 1974.*
4. *Golovin B.N., Berezin F. M. Obshche yazikoznanie. M., 1979.*
5. *Gumboldt. V fon. Izbrannie trudi po yazikoznaniyu. M., 1984.*
6. *Rasulov R. va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. T., 2006.*
7. *Koduxov V.I. Obshche yazikoznanie. M., 1974.*
8. *Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. *Konrad N. I.* O smisle istorii. //Izbrannie trudi. Istoriya. M., 1974.
2. *Kotov R.* Lingvisticheskie aspekti avtomatizirovannix sistem upravleniya. M., 1977.
3. *Makaev E. A.* Obshchaya teoriya sravnitel'nogo yazikoznaniya. M., 1977.
4. *Meye A.* Sravnitel'nyy metod v istoricheskom yazikoznaniy. M., 1954.
5. *Mixaylov A.Ch.*i dr. Nauchnie kommunikatsii i informatika. M., 1976.
6. Novoe v lingvistike. Vipuski 1-8. 1960 – 1978.
7. Obshche yazikoznanie. Vnutrennyaya struktura yazika. M., 1972.
8. *Panfilov V. Z.* Vzaimootnosheniya yazika i mishleniya. M., 1971.
9. *Rojdestvenskiy Yu. V.* Tipologiya slova. M., 1969.
10. *Rojdestvenskiy Yu. V.* Vvedenie v obshchuyu filologiyu. M., 1979.
11. *Rojdestvenskiy Yu. V.* i dr. Vvedenie v prikladnuyu filologiyu. M., 1988.
12. *Rojdestvenskiy Yu.V.* Leksii po obshchemu yazikoznaniyu. M., 1990.
13. *Semereni O.* Vvedenie v sravnitel'noe yazikoznanie. M., 1980.
14. *Solnsev V.M.* Yazik kak sistemno-strukturnoe obrazovanie. M., 1971.
15. *Sossyur F de.* Trudi po yazikoznaniyu. M., 1977.
16. *Stepanov Yu. S.* Osnovi obshchego yazikoznaniya. M., 1975.
17. *Susov I. P.* Istoriya lingvisticheskix ucheniy. M., 1998. Elektronnaya versiya.
18. *Susov I.P.* Vvedenie v teoreticheskoe yazikoznanie. M., 2003.
19. *Fortunatov F. F.* Sravnitel'noe yazikovedenie. //Izbrannie trudi. M., 1956.T.1.
20. *Uspenskiy B. A.* Strukturnaya tipologiya yazikov. M., 1965.